

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILI O‘RTASIDA GIFONETIK FARQLANISH

Mamasoliyeva Gulchexra Abduxalilovna
Andijon davlat chet tillar instituti
Frantsuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o‘qituvchisi
Muxiddinova Marjona
Andijon davlat chet tillar instituti,
frantsuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida II-bosqich talabasi

Ma’lumki, o‘zbek tili unli tovushlar sistemasi o‘zbek fransuz unililar sistemasi nafaqt o‘zbek va fransuz balki dunyo tilshunos olimlari tomonidan har tomonlama ko‘rib chiqilgan.

O‘zbek tilshunos olimlaridan N.A. Baskakov, V.V.Reshetov, A G‘ulom, A, Abduazizov, H. Ne‘matov, A. Nurmonov D.Nabiyeva, M. Mirtojibev kabi yana ko‘plab olimlarini izlanishlarida o‘zbek fonetikasi haqida ma’lumotlar berilsa, fransuz fonetikasi haqida muhim ma’lumotlar L.V.Sherba, F. Sosyur, E.Burse, Sh. Barri, P. Fushe, N.Shigarevskaya, V.I.Rapanovich va boshqa dunyo olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq turli tillar oilasiga kiruvchi ikki til, fransuz va o‘zbek tili fonetikasini qiyoslab o‘rganish hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. A.N.Andreychkova va M.Ubaydullayevlarning “Frantsuz tili fonetikasi” darsligida fransuz tili va o‘zbek tilidagi bir necha asosiy farqlar sanab o‘tiladi..Француз тилида 15 та (o‘zbek tilida 6 ta unli bor)

Tilning vertikal holati(boshqa manbalarda 16ta) ga ko‘ra fransuz unililari 4 ta, o‘zbek unililari 3 ochiqlik darajalariga ega

1. Fransuz tilida 9 ta, o‘zbek tilida 1 ta old qator unlisi mavjud.
2. Ochiq unililar fransuz tilida o‘zbek tilidagiga nisbatan ko‘p
3. Fransuz tilida 8 ta, o‘zbek tilida 2 ta lablangan unililar bor.
4. Fransuz tilida unililarning labializatsiyalashuvi til oldi artikulyatsiyasi bilan ketadi.

O‘zbek tilida bunday xususiyat yo‘q. Chunki lablangan tovushlar / u, o‘/ til oldi emas, til o‘rta tovushlardir. Fransuz tilida burun unli tovushlari mavjud, o‘zbek tilida esa yo‘q.

5. Fransuz tilida diftong yo‘q, o‘zbek tilida bor
6. Fransuz unililari reduksiyaga uchramaydi, o‘zbek unililari esa reduksiyaga uchraydi.

Bir → b/i/r → br;

Kichik → k/i/ch/i/k → kchik

sira→s/i/r/a → sra

puchuq→ p/u/ch/u/q → pchiq va h.k

Fransuz tilida so‘z oxiridagi undoshlar jarangsizlashadi. O‘zbek tilida esa ular jarangsizlashadi:

Maktab / b-p/

limonade [limɔ‘nad]

Maqsad / d-t/

étage [e‘ta :ʒ]

1. Fransuz tilida affikrat undosh tovushlar yo‘q, o‘zbek tilida esa bor

j/-dj/; janub, janjal. Jo‘ja

Fransuz tilida cho‘ziq va qisqa unililar bor. O‘zbek tilida esa yo‘q.

Fransuz tilida ritmikaning o‘ziga xosligi kuchsiz markazlashtiruvchi urg‘u, dezaksentuatsiya, ikkinchi darajali urg‘udlar mavjudligidandir.

O‘zbek tilida esa urg‘u dinamik yoki ekspirator urg‘u hisoblanadi. Biz bir necha tadqiqot va amaliy tadqiqotlarga asoslanib, yuqoridagi qiyoslashda ikkala til o‘rtasidagi ajratib ko‘rsatilgan fonetik farqlar munozara va mulohazalarga boy. Keyingi maqolalarimizda endilikda ilmiy izlanishlarimiz orqali aniqlangan qo‘shimchalarni farqlarni haqida batafsil fikr yuritamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jean-Loup Chiflet. Figures de style : qu'est-ce qu'une gradation ? Figaro. Paris. 2021
2. Г.А.Мамасолиева. Француз тили унлиларинг синтагматик ҳолатдаги даражали муносабати. Finland International Scientific Journal of Education – Social Science & Humanities, 2023
3. Mamasoliyeva Gulchekhra Abdukhalilovna Importance of study guide and textbooks in language teaching in modern education system.TEXTBOOKS In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 14, pp. 174-176).
4. M.G. Abdukhalilovna. Opposition des voyelles françaises et ouzbeques. – PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING ..., 2023 – interonconf.org
5. M.G Abdukhalilovna – FRENCH WORDS EXPRESSIONS Scientific Impulse, 2023 – nauchniyimpuls.ru F Page 1 Международный научный журнал № 9